



## HUDUDIY INVESTITSIYA SIYOSATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA MEXANIZMLARI

**Temirov Nurislom**

*"Ipoteka-bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki*

ORCID: 0009-0006-4851-6390

[nurislomtemirov@gmail.com](mailto:nurislomtemirov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston hududlarida investitsiya siyosati samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda hududiy tafovutlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va investitsion faollikni muvozanatlashtirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida xorijiy investitsiyalar oqimi va asosiy kapitalga yo'naltirilgan sarmoyalar dinamikasi o'rganilgan. Taklif etilgan hududiy differensial siyosat mexanizmi investitsion muhitni barqarorlashtirish hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** hududiy investitsiya siyosati, samaradorlik, xorijiy investitsiyalar, differensial mexanizm, iqtisodiy o'sish.

## ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ

**Темиров Нурислом**

*Акционерный коммерческий ипотечный банк «Ipoteka-bank»*

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности инвестиционной политики в регионах Узбекистана. В исследовании анализируются пути снижения территориальных различий, рационального использования ресурсов и балансирования инвестиционной активности. Кроме того, изучена динамика иностранных инвестиций и вложений в основной капитал в рамках стратегии «Новый Узбекистан – 2030». Предложенный механизм региональной дифференцированной политики направлен на стабилизацию инвестиционного климата и сокращение экономических диспропорций между регионами.

**Ключевые слова:** региональная инвестиционная политика, эффективность, иностранные инвестиции, дифференцированный механизм, экономический рост.

## FACTORS AND MECHANISMS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF REGIONAL INVESTMENT POLICY

**Temirov Nurislom**

*Joint-Stock Commercial Mortgage Bank "Ipoteka-Bank"*

**Abstract.** The article examines the issues of enhancing the effectiveness of regional investment policy in Uzbekistan. The study analyzes ways to reduce territorial disparities, ensure the rational use of resources, and balance investment activity across regions. Additionally, it explores the dynamics of foreign investments and capital expenditures within the framework of the "New Uzbekistan – 2030" strategy. The proposed regional differential policy mechanism is aimed at stabilizing the investment climate and reducing economic disparities between regions.

**Keywords:** regional investment policy, efficiency, foreign investments, differential mechanism, economic growth.

### Kirish.

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida hududlarning iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishi bevosita investitsiya siyosatining samaradorligiga bog'liqdir. Investitsiyalar nafaqat yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va infratuzilmani rivojlantirish vositasi, balki hududiy iqtisodiyotda bandlikni oshirish, ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish va innovatsion faoliyatni faollashtirishning muhim omili sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, hududiy investitsiya siyosatining samaradorligini oshirish masalasi O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda har bir hududning tabiiy, mehnat va ishlab chiqarish salohiyatidan kelib chiqib, differensial investitsiya siyosatini yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturi", shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va mahalliy investorlar faolligini oshirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bu borada muhim o'rin tutadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hududlarda investitsion jarayonlarning sustligi, resurslardan samarali foydalanish darajasining pastligi, boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi iqtisodiy o'sish sur'atlariga to'siq bo'lib qolmoqda.

Mazkur holat hududiy investitsiya siyosatini institutsional, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, investitsiya muhitini yaxshilash, investorlarga kafolat va imtiyozlar tizimini soddalashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, innovatsion va "yashil" loyihalarni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar samaradorlikni oshirishning muhim omillari hisoblanadi.

Shu sababli, hududiy investitsiya siyosatini shakllantirishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, uning samaradorligiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional va tashkiliy omillarni aniqlash, shuningdek, amaldagi boshqaruv mexanizmlarining afzalliklari, zaif jihatlari va ularni takomillashtirish yo'llarini tahlil qilish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsion salohiyati va biznes muhitining o'ziga xosligi siyosatni samarali yuritish uchun moslashuvchan yondashuvni talab etadi. Shu jihatdan, ilmiy asoslangan hududiy investitsiya siyosatini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish orqali nafaqat investitsion oqimlarni ko'paytirish, balki ularning hududiy taqsimotini muvozanatlash, iqtisodiy o'sish markazlarini shakllantirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

### Adabiyotlar sharhi.

Hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda jahon va milliy iqtisodiyotshunoslikda keng qamrovli tahlil markaziga aylangan. Xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida investitsion muhitning jozibadorligini oshirish, hududiy farqlanishni kamaytirish hamda davlatning tartibga soluvchi roli iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Adabiyotlarda asosan investitsiya jarayonlarini boshqarishning nazariy konsepsiyalari, davlat-xususiy sheriklikning samaradorligi, hududiy kapitalning iqtisodiy o'sishga ta'siri va institutsional boshqaruv sifatining ahamiyati chuqur yoritilgan.

Spilioti va Anastasiou (2024) Yevropa Ittifoqi tajribasini o'rganib, hududiy investitsiya siyosati samaradorligi asosan boshqaruv sifati, institutsional salohiyat va iqtisodiy erkinlik darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ular strategik va maqsadli moliyalashtirish, fondlar boshqaruvida shaffoflik, hamda innovatsion faoliyat monitoringini kuchaytirish orqali investitsion siyosatning natijadorligini oshirish mumkinligini isbotlaydi. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham institutsional islohotlar va boshqaruv tizimini optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Fratesi va Perucca (2024) tadqiqotlari esa hududiy kapital va mahalliy resurslardan oqilona foydalanish masalasiga e'tibor qaratadi. Ularning fikricha, hududiy siyosat

samaradorligi mavjud infratuzilma, inson kapitali, ijtimoiy tarmoqlar va innovatsion salohiyatning darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli, mintaqalar o'z resurslarini baholash orqali investitsiya yo'nalishlarini mahalliy xususiyatlarga moslashtirishi kerak. Bu yondashuv hududiy siyosatda moslashuvchanlik va resurslarga asoslangan strategik rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Nikolaev (2019) investitsiya siyosati samaradorligini makroiqtisodiy barqarorlik, iste'mol talabi va real sektorni kreditlash imkoniyatlari bilan bog'laydi. Unga ko'ra, hududiy investitsiya siyosatida infratuzilma va ishlab chiqarish yo'nalishlariga haddan tashqari resurs yo'naltirish qaytimi past bo'lgan natijalarga olib keladi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va investitsion muhitni yaxshilash muhim mexanizmlar sifatida qaraladi.

Iammarino (2018) esa hududiy siyosatda globalizatsiya va texnologik o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan tafovutlarni tahlil qiladi. Uning fikricha, samarali hududiy investitsiya siyosati xorijiy kapitalni jalb qilish bilan birga, mahalliy korxonalarni xalqaro bozorga olib chiqishni ham ko'zlashi kerak. Bu esa hududlararo integratsiyani kuchaytirish, innovatsiyalarni almashish va iqtisodiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Muxamadjanov (2023) O'zbekiston hududlarida investitsiya muhitini yaxshilashning amaliy yo'nalishlarini ishlab chiqib, mahalliy infratuzilma, yoshlar sanoat zonalar va moliyaviy rag'batlantirish tizimlarining o'rni muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, soliq va bojxona imtiyozlarini soddalashtirish, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda investorlar uchun kafolatli muhit yaratish hududlarda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, hududiy investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda amaliy mexanizmlarni uyg'unlashtirish zarur. Boshqaruv sifatini oshirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, institutsional salohiyatni mustahkamlash va mahalliy resurslardan oqilona foydalanish hududiy investitsiya siyosatining samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, O'zbekiston uchun investitsion siyosatni hududiy xususiyatlarga moslashtirish va barqaror rivojlanish strategiyalari bilan integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda O'zbekiston hududlarida investitsiya siyosati samaradorligini oshirish omillari va mexanizmlari ilmiy asosda o'rganildi. Maqolada hududiy siyosatning iqtisodiy, institutsional va tashkiliy jihatlari tahlil qilinib, ularning o'zaro ta'siri aniqlangan. Metodologik asos sifatida tizimli va qiyosiy tahlil, deduksiya, induksiya hamda statistik tahlil usullari qo'llanilgan. Ushbu yondashuvlar yordamida investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari umumlashtirilib, samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston iqtisodiyotida hududiy investitsiya siyosati milliy rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida hududiy investitsiya siyosati faol bosqichga kirib, mintaqaviy iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish salohiyatining kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Investitsiyalar oqimining ortishi natijasida hududlarning yalpi hududiy mahsuloti (YHM) barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda (Yormonqulova, 2025).

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-2024-yillar oralig'ida barcha hududlarda YHM hajmi oshgan. 2021-yilda eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyati hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu hududlar o'z yetakchi mavqeini yanada mustahkamladi. Xususan, Toshkent shahrining YHM hajmi 281 147,4 mlrd so'm,

Toshkent viloyatida 146 385,2 mlrd so'm, Navoiy viloyatida esa 117 297,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Ayni paytda Sirdaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlarida 2021-yilda YHM eng past darajada qayd etilgan. 2024-yilga kelib bu hududlarda iqtisodiy faoliyat hajmi oshgan bo'lsada, ularning ko'rsatkichlari mamlakatdagi yetakchi mintaqalarga nisbatan pastligicha qolmoqda (1-jadval).

1-jadval

## Yillar kesimida Yalpi hududiy mahsulot hajmi (joriy narxlarida, mlrd. so'm)

| T/r | Hududlar             | 2021     | 2022     | 2023     | 2024     |
|-----|----------------------|----------|----------|----------|----------|
| 1   | Andijon viloyati     | 48894.3  | 62891.4  | 77337.9  | 90522.1  |
| 2   | Buxoro viloyati      | 43069.7  | 51728    | 61242.6  | 71560.4  |
| 3   | Jizzax viloyati      | 25632.4  | 30367    | 37383.2  | 43057.9  |
| 4   | Qashqadaryo viloyati | 49397.5  | 57629.1  | 68648.6  | 80658.3  |
| 5   | Navoiy viloyati      | 61118.4  | 71994.4  | 88215.4  | 117297.8 |
| 6   | Namangan viloyati    | 40269.1  | 48513.7  | 58173.7  | 68915.7  |
| 7   | Samarqand viloyati   | 59260.4  | 68988.6  | 83149.5  | 99866.1  |
| 8   | Surxondaryo viloyati | 33591.1  | 39201.8  | 46999.2  | 54354.1  |
| 9   | Sirdaryo viloyati    | 16865.1  | 20155.6  | 24001.7  | 28003.3  |
| 10  | Toshkent viloyati    | 91317.3  | 103244.8 | 121442.6 | 146385.2 |
| 11  | Farg'ona viloyati    | 55831.9  | 65516.9  | 78009    | 91333    |
| 12  | Xorazm viloyati      | 29737.2  | 37474.3  | 43666.7  | 51261    |
| 13  | Toshkent shahri      | 139396.8 | 172469.3 | 215099.2 | 281147.4 |

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishida kiritilayotgan investitsiyalar hal qiluvchi o'rin tutadi. Ular ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Investitsiyalar natijasida yangi korxonalar tashkil etilmoqda, mavjud ishlab chiqarish quvvatlari yangilanmoqda, xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanmoqda. Bu esa bandlik darajasini oshiradi, mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytiradi hamda aholining turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.

Xususan, sanoat, energetika, transport va ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirib, iqtisodiy faollikni rag'batlantirmoqda. Xorijiy investitsiyalar esa mahalliy iqtisodiyotga ilg'or texnologiyalarni, zamonaviy boshqaruv tajribasini va yangi ish uslublarini olib kirib, eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu jihatdan, investitsiyalar hududiy rivojlanishning asosiy drayveri bo'lib, ular mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi izchil oshib bormoqda. Bu o'sish mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilayotgan qulay muhit hamda hududiy rivojlanish dasturlarining amaliy natijasidir. Shu bilan birga, investitsiya faolligining o'sishi barcha hududlarda bir xil kechmayapti, ayrim mintaqalarda iqtisodiy salohiyat va infratuzilma rivojlanish darajasiga qarab tafovutlar saqlanib qolmoqda. Quyidagi jadvalda 2021-2024-yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati, shuningdek, hududlar o'rtasidagi farqlarni aks ettiruvchi umumiy tendensiyalar keltirilgan (2-jadval).

Jadval ma'lumotlari mamlakatimiz hududlarida 2021-2024-yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalarning barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi, biroq bu jarayon hududlar kesimida notekis kechgan. 2021-yilda eng yuqori o'sish Buxoro (147,4%) va Xorazm (139,3%) viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Jizzax (72,4%) va Qashqadaryo (77,8%) viloyatlarida qayd etilgan.

2-jadval

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati (%)

| T/r | Hududlar             | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  |
|-----|----------------------|-------|-------|-------|-------|
| 1   | Andijon viloyati     | 106   | 116.5 | 121.2 | 139.4 |
| 2   | Buxoro viloyati      | 147.4 | 94.2  | 132.2 | 153.5 |
| 3   | Jizzax viloyati      | 72.4  | 104.6 | 134.1 | 144.4 |
| 4   | Qashqadaryo viloyati | 77.8  | 80    | 117.7 | 156.2 |
| 5   | Navoiy viloyati      | 86    | 109.4 | 136.3 | 115.8 |
| 6   | Namangan viloyati    | 100.5 | 104.2 | 121.3 | 261.2 |
| 7   | Samarqand viloyati   | 98.7  | 111.6 | 127.8 | 105.5 |
| 8   | Surxondaryo viloyati | 109.7 | 87.5  | 148.3 | 86.2  |
| 9   | Sirdaryo viloyati    | 107.7 | 135.1 | 117.7 | 67.1  |
| 10  | Toshkent viloyati    | 120.3 | 110.7 | 121.1 | 139.2 |
| 11  | Farg'ona viloyati    | 105.7 | 112.4 | 120.1 | 101.0 |
| 12  | Xorazm viloyati      | 139.3 | 94.2  | 121   | 120.8 |
| 13  | Toshkent shahri      | 105   | 87.2  | 115.8 | 119.1 |

2022-yilda o'sish sur'atlari barqarorlashib, Navoiy, Samarqand va Toshkent viloyatlarida nisbatan muvozanatli natijalar kuzatildi. 2023-yilda esa investitsion faollik yana kuchayib, Surxondaryo (148,3%) va Jizzax (134,1%) kabi hududlarda sezilarli o'sish qayd etildi.

2024-yilga kelib, Namangan viloyati (261,2%) eng yuqori natijani ko'rsatdi, bu hududda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga yo'naltirilgan sarmoyalarning keskin ortgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Sirdaryo (67,1%) va Surxondaryo (86,2%) viloyatlarida o'sish sur'atining pasaygani investitsiya faolligidagi hududiy tafovutlarni ko'rsatadi. Shuni qayd etish joizki, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sishi O'zbekiston iqtisodiyotining mintaqaviy rivojlanishini jadallashtirmoqda, ammo investitsiyalarni yanada muvozanatli taqsimlash uchun hududiy salohiyatni hisobga olgan differensial siyosat yuritish zarur deb xisoblaymiz.

Umuman olganda, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sishi O'zbekiston iqtisodiyotining mintaqaviy rivojlanishini jadallashtirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, so'nggi yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmining ortib borishi mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanmoqda. Bu jarayon mamlakatda investitsion muhitni liberallashtirish, soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish, shuningdek, "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida hududlar kesimida investitsiya siyosatini faollashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

So'nggi yillarda xorijiy kapital ishtirokidagi loyihalar soni ko'payib, ishlab chiqarish, transport-logistika, energetika va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi keskin oshgan. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar hududlar o'rtasida notekis taqsimlanib, poytaxt va sanoat salohiyati yuqori viloyatlarda ustunlik qilmoqda. Quyida keltirilgan jadvalda (3-jadval) 2020-2024-yillarda O'zbekiston bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmining o'sish dinamikasi keltirilgan bo'lib, u investitsion faollikning umumiy yo'nalishlarini va hududlararo tafovutlarni aks ettiradi.

Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda so'nggi besh yil davomida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi izchil oshib borayotganini ko'rsatadi. 2020-yilda 89,8 trln so'mni tashkil etgan xorijiy sarmoyalar 2024-yilga kelib 333,8 trln so'mga yetib, qariyb 3,7 barobar o'sish qayd etilgan.

**2020-2024-yillarda O'zbekistonda asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar  
va kreditlar hajmi**

| Yillar | Investitsiya hajmi,<br>trln. so'm | O'sish surati, % | Ekvivalenti,<br>mlrd AQSh dollari |
|--------|-----------------------------------|------------------|-----------------------------------|
| 2020   | 89,8                              | 98,9             | 8,90                              |
| 2021   | 101,4                             | 102,1            | 9,55                              |
| 2022   | 113,9                             | 100,5            | 10,31                             |
| 2023   | 201,7                             | 163,8            | 17,18                             |
| 2024   | 333,8                             | 152,1            | 26,39                             |

2021-2022-yillarda o'sish sur'ati nisbatan barqaror (100-102 %) bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 163,8 % gacha keskin oshgan. Bu, avvalo, "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida yirik infratuzilma va sanoat loyihalariga xorijiy kapitalni jalb etish siyosati bilan bog'liq. 2024-yilda esa xorijiy investitsiyalar hajmi rekord darajada ortib, 26,4 mlrd AQSh dollariga tenglashgan.

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida xorijiy sarmoyalar oqimining barqaror o'sishi O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqligi, investitsion muhitning yaxshilanishi va xalqaro hamkorlikning faollashgani bilan izohlanadi.

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar O'zbekiston investitsiya siyosatining eng dolzarb masalalaridan biridir. Mamlakatda ayrim hududlarda sanoat va infratuzilma jadal rivojlanayotgan bir paytda, boshqa mintaqalarda investitsion faollik past darajada saqlanib qolmoqda. Shu sababli investitsiyalarni muvozanatli taqsimlash va iqtisodiy tenglikni ta'minlash uchun hududiy differensial siyosatni shakllantirish va amalda qo'llash zarurdir.

Mazkur yondashuv har bir hududning tabiiy resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari, demografik imkoniyatlari hamda infratuzilma darajasini inobatga olgan holda investitsiya oqimlarini maqsadli yo'naltirishni nazarda tutadi. Rivojlanmagan mintaqalarga soliq yengilliklari, imtiyozli kreditlar, infratuzilma qo'llab-quvvatlovi va investorlar uchun kafolat tizimini kuchaytirish orqali sarmoya jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda innovatsion va eksportga yo'naltirilgan loyihalarni rivojlantirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish lozim.

Hududiy differensial siyosat investitsion muhitni barqarorlashtiradi, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi hamda mamlakat miqyosida raqobatbardosh va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shu tarzda ishlab chiqilgan yondashuv O'zbekistonning investitsion siyosatini yanada manzilli, adolatli va samarador qiladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun hududiy differensial siyosatni samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan aniq mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Bunday mexanizm har bir hududning iqtisodiy salohiyatini baholash, investitsiya oqimlarini maqsadli yo'naltirish va rivojlanmagan mintaqalarda sarmoya jalb etish uchun rag'batlantiruvchi sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Hududiy differensial siyosat mexanizmi mamlakat hududlarining iqtisodiy, tabiiy va ijtimoiy salohiyatini chuqur tahlil asosida baholab, investitsiya resurslarini maqsadli taqsimlashni ta'minlaydigan boshqaruv tizimini anglatadi. Uning asosiy vazifasi – iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda investitsion faollikni hududlar kesimida muvozanatli oshirishdir.

Mazkur mexanizm investitsiyalarni nafaqat hajm jihatidan, balki ularning tarmoqlar va hududlar bo'yicha strategik yo'naltirilishi nuqtayi nazaridan ham boshqarishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, iqtisodiy faolligi past hududlarda rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni kuchaytirish, resurs bazasi va infratuzilma rivojini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Natijada, hududiy differensial siyosat mexanizmi mamlakat miqyosida investitsion muhitni barqarorlashtirish, iqtisodiy o'sishni hududlar bo'yicha muvozanatlashtirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Hududiy differensial investitsiya siyosati mexanizmi o'z ichiga quyidagilarni olishi lozim:

- Hududiy differensial investitsiya siyosati mexanizmi;
- Maqsadli siyosatni shakllantirish;
- Rag'batlantiruvchi mexanizmlar;
- Moliyaviy boshqaruv tizimi;
- Monitoring va baholash tizimi.

Maqsadli siyosatni shakllantirish bosqichida har bir hududning tabiiy resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari va demografik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning ixtisoslashuviga mos investitsion yo'nalishlar belgilanadi. Bu bosqich investitsiya siyosatini manzilli va real ehtiyojlarga mos tarzda rejalashtirishga xizmat qiladi.

Rag'batlantiruvchi mexanizmlar hududlarga sarmoya jalb etishni faollashtiruvchi vositalar majmuasidir. Ular soliq va bojxona imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, infratuzilma qo'llab-quvvatlovi hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini o'z ichiga oladi. Mazkur mexanizmlar investorlar uchun qulay muhit yaratib, risklarni kamaytiradi va investitsiya jozibadorligini oshiradi.

Moliyaviy boshqaruv tizimi investitsion loyihalarni moliyalashtirish, nazorat qilish va resurslarni oqilona taqsimlashni ta'minlaydi. Bu tizimda hududiy investitsiya fondlari, davlat byudjeti, xususiy sektor hamda xalqaro moliya institutlarining mablag'lari uyg'unlashtiriladi.

Monitoring va baholash tizimi esa amalga oshirilayotgan siyosatning samaradorligini aniqlaydi. Unda investitsiya hajmi, yangi ish o'rinlari, eksport salohiyati va ishlab chiqarilgan qo'shilgan qiymat kabi indikatorlar asosida tahlil olib boriladi. Ushbu tizim natijalarga ko'ra siyosatni qayta moslashtirish va samaradorlikni doimiy ravishda oshirish imkonini beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida hududiy investitsiya siyosati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Investitsiya oqimlarining ko'payishi, xorijiy kapitalning faol kirib kelishi va ishlab chiqarish infratuzilmasining kengayishi mintaqaviy iqtisodiy faollikni sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda investitsion faollik pastligi, infratuzilma yetishmasligi va institutsional to'siqlar sababli iqtisodiy tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan hududiy differensial investitsiya siyosati mexanizmi investitsiyalarni maqsadli boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va rivojlanmagan mintaqalar uchun rag'batlantiruvchi choralarni joriy etishni nazarda tutadi. Bunda maqsadli siyosat, rag'batlantiruvchi vositalar, moliyaviy boshqaruv hamda monitoring tizimining uyg'unligi investitsion muhitni barqarorlashtirish va hududiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijada, differensial yondashuv asosida shakllangan investitsiya siyosati mamlakat hududlarining iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

Fratesi U., Perucca G. (2019). *EU Regional Policy Effectiveness and the Role of Territorial Capital. Research for Development*. 29-37.

Iammarino S. (2018). *FDI and regional development policy. Journal of International Business Policy*, 1, 157-183.

*Muxamadjanov Sh. (2023). Directions for Improving the Investment Environment and Increasing the Efficiency of Investment Projects in the Regions on the Example of the Republic of Uzbekistan. International Business & Economics Studies. 96-101.*

*Nikolaev M. (2019). Efficiency Factors Of Regional Investment Policy. 550-559.*

*Spilioti N., Anastasiou A. (2024). European Structural and Investment Funds (ESIFs) and Regional Development across the European Union (EU). Journal of Risk and Financial Management.*

*Yormonqulova N.I. Mintaqaviy tafovutlar va iqtisodiy rivojlanishda investitsiyalar o'рни. Qo'qon universiteti xabarnomasi. 15-son. 2025. 62-65.*